

**O‘ZBEKISTONDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINI
MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISH ISHLARINI
TASHKIL ETISH**

Rasulov Gayrat Pardayevich

O‘zbekiston xalqaro islom

akademiyasi v.b. dotsenti

E-mail: rgayrat@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarixiy madaniy meroslarni asrashda Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy ishlab chiqarish bosh boshqarmasi faoliyati yoritilgan. Respublikada davlat muhofazasiga olingan madaniy meros obyektlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: madaniy meros, arxeologik yodgorliklar, moddiy meros, madaniy-tarixiy ob'ekt, tarixiy-me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va ulardan unumli foydalanish.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab xalqimizning qadim o'tmishi, shonli tarixi, ajdodlarimizdan qolgan nodir madaniy merosni ilmiy o'rganish, uni asrash va undan foydalanish bo'yicha yangicha yondashuv, talab va vazifalar davlat miqyosida kun tartibiga qo'yildi¹. Xususan, 1992-yilda "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy ishlab chiqarish bosh boshqarmasi (keyingi o'rinlarda Bosh boshqarma) tashkil etildi. Bosh boshqarmaning asosiy vazifalari Respublika hududida joylashgan tarixiy – madaniy merosning ko'chmas mulk shaklidagi obyektlari, shu jumladan, tarixiy-me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va ulardan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish ishlari kiritilgan. 2019-yil 30 martdan Madaniy meros departamentiga (keyingi o'rinlarda Departamenti

¹ Сохранение, развитие и демонстрация ремесел, как части нематериального культурного наследия в объектах культурного туризма. <https://cyberleninka.ru/article>

deb ataladi) nomlandi².” Departament o‘ziga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajarish belgilab qo‘yildi:

Birinchidan Moddiy - madaniy meros, shu jumladan , arxeologiya va arxitektura meros obyektlari, muzey ashyolari va kolleksiyalari hamda madaniy boyliklarni muhofaza qilish, ulardan foydalanishga oid qonun hujjatlariga rioya etilishi sohasida alohida muhofaza qilinadigan tarixiy – madaniy hududlar, xususan, YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlarni boshqarish rejalariga rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi³.

Ikkinchidan moddiy – madaniy meros obyektlarini davlat kadastrini yuritish, tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zga madaniy qimmatga ega bo‘lgan obyektlarni aniqlash, ularni hujjatlashtirish va davlat hisobiga olish, moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari toifalari va qo‘riqlanadigan tegralarini belgilash, shuningdek ulardan oqilona foydalanilishini ta‘minlash sohasida moddiy-madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari miqdor va sifat tavsiflarini hisobga oladi va qiymat jihatidan baholaydi.

Uchinchidan tarixiy – madaniy va loyiha – smeta hujjatlarining ekspertizasini, moddiy – madaniy meros obyektlarining tarixiy –madaniy qimmati va noyobligiga putur yetkazmagan holda tegishli ishlarning amalga oshirilishi bo‘yicha uzluksiz ilmiy texnik nazoratni olib boradi.

To‘rtinchidan alohida muhofaza qilinadigan tarixiy – madaniy va jahon madaniy merosi obyektlari jumlasiga kiritilgan hududlarda shaharsozlik va boshqa xo‘jalik faoliyatlarini ularning tarixiy – madaniy muhiti, tabiiy landshafti va o‘ziga xosligini saqlab qolgan holda olib borilishini muvofiqlashtiradi.

Madaniy hudud - madaniy boyliklardan ishlab chiqarish va iqtisodiy foydalanishni optimallashtirish maqsadida yaratilgan hududdagi munosabatlar tizimi. Ushbu maqsadga madaniy merosni boshqarish rejalari va vositalarini,

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Маданият Вазирлиги ҳузуридаги Маданий мерос Департаменти фаолиятини ташкил этиш ҳамда моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишга оид айрим норматив – ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида»ги 265- сонли Қарори 2019 йил 20 март.

³“Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги 269-II-сон Қонун 30.08.2001. <https://www.lex.uz/docs/25461>

shuningdek, bir xil hududlarda nomoddiy va moddiy xayriyalarni birlashtirish orqali erishiladi.

Shuningdek, mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston madaniy merosni muhofaza qilish, milliy qadriyatlar va an'analarni xolis o'rganish hamda ularni tiklashning tashkiliy - huquqiy asoslari yaratildi. Ushbu masalaga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab – asrashga majbur va madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasida" ekanligi ta'kidlab o'tilgan⁴. Shuningdek, mustaqillik yillarida "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"⁵ gi, "Muzeylar to'g'risida"gi, "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi⁶. Mazkur qonunlarning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli qarorlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Hozirgi kunda ham milliy madaniy merosni o'rganish, targ'ib etish , va ulardan Respublika ma'naviy – ma'rifiy hamda iqtisodiy salohiyatini oshirishda unumli foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda⁷. Bu borada qilingan ishlar sirasiga:

- davlat muhofazasiga olingan madaniy meros yodgorliklari ro'yxatining sezilarli darajada kengaytirilgani;

- jahon sivilizatsiyasida o'ziga xos o'rin tutgan tarixiy shahar markazlari va ularda bunyod etilgan milliy me'morchilikning nodir namunalarini "Butunjahon madaniy merosi ro'yxati" ga kiritilishi;

- ularni respublika dunyo miqyosida chuqur o'rganish va targ'ib etish bo'lgan e'tiborning kuchaytirilishi;

⁴ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 1992 8 декабрь. 49- модда. [https:// lex.uz/docs/ 20596](https://lex.uz/docs/20596)

⁵ <https://lex.uz/acts/25461>

⁶ "Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улardan фойдаланиш тўғрисида"ги 269-II-сон Қонун 30.08.2001. <https://www.lex.uz/docs/25461>

⁷ Теоритические основы управления социально-экономичес ким развитием территорий с объектами культурного наследия.

- respublika miqyosida turizmni rivojlantirishda aynan tarixiy – me'moriy yodgorliklardan foydalanish masalasining mamlakatning ijtimoiy salohiyatini oshirishda qaratilgan davlat dasturlari doirasida kiritilishi shular jumlasidandir⁸

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida “turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarini diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash turizm infratuzilmasini kengaytirish”da tarixiy me'moriy merosdan unumli foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan⁹.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan madaniy yodgorliklarni o'rganish va muhofaza qilishga oid ko'plab huquqiy meyoriy hujjatlar takomillashtirilib, ularga asosan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur masalaga oid faktik materiallar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros departamenti (avvalgi Bosh boshqarma) hisobotlarida o'z aksini topgan. Xususan, departamentning statistik ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunga kelib, respublikada davlat muhofazasiga olingan mavjud 8647 ta madaniy meros obyektidan

- 3013 tasi me'moriy yodgorliklar;
- 4763 tasi arxeologik yodgorliklar;
- 615 tasi monumental yodgorliklar;
- 256 tasi diqqatga sazovor joylardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi qaroriga asosan ko'chmas moddiy madaniy meros obyektlarning milliy ro'yxati tasdiqlangan. “Ro'yxatdan 8208 ta ko'chmas moddiy madaniy meros obyekti joy olgan bo'lib, ulardan 4748 tasi arxeologik yodgorliklar, 2250 tasi arxitektura yodgorliklari, 678 tasi monumental san'at yodgorliklari va 532 tasi diqqatga sazovor joylardir. Xususan, Samarqanddagi 1607 ta obyekt, ulardan 70 ta me'moriy yodgorlik respublika va 769 tasi mahalliy, Buxorodagi 660 ta, ulardan 283 tasi respublika, 377 tasi mahalliy, Toshkentdagi 509 ta, shundan 6 tasi respublika 503

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги Қарори. 2017 йил 7 февраль [https:// lex.uz/docs/ 3107036](https://lex.uz/docs/3107036)

⁹ Қаранг. Ўша асар.

tasi mahalliy, Xorazmdagi 225 ta, shundan 97 tasi respublika 128 tasi mahalliy, Qashqadaryodagi 204 ta, shundan 23 tasi respublika, 181 tasi mahalliy, Farg'onadagi 189 ta, shundan 9 tasi respublika, 180 tasi mahalliy, Namangandagi 109 ta, shundan 12 tasi respublika, 97 tasi mahalliy, Navoiyidagi 74 ta 11 tasi respublika, 63 tasi mahalliy, Andijondagi 67 ta, shundan 5 tasi respublika, 62 tasi mahalliy, Qoraqalpog'iston Respublikasi 60 ta, shundan 22 tasi respublika, 38 tasi mahalliy, Surxondaryodagi 38 ta, shundan 12 tasi respublika, 26 tasi mahalliy, Sirdaryodagi 7 ta, mahalliy ahamiyatga ega me'moriy yodgorliklar, shuningdek, O'zbekistondagi ko'chmas madaniy meros obyektlarining milliy ro'yxatdan joy olgan¹⁰.”

Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda tarixiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, o'rganish, asrab-avaylash, ulardan foydalanish va ommalashtirish, tarixiy-madaniy obyektlarni aniqlash, hisobga olish, tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish sohasidagi jamoat munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish tizimini yaratish, tarixiy-madaniy merosimizni yanada chuqur o'rganish maqsadida arxeologik qazishmalar siklini olib borish, ularni qayta tiklash, muzeylashtirish va jahonga mashhur sayyohlik markazlariga aylantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида” ги Қарори. 2017 йил 7 февраль [https:// lex.uz/docs/ 3107036](https://lex.uz/docs/3107036)
2. Сохранение, развитие и демонстрация ремесел, как части нематериального культурного наследия в объектах культурного туризма. <https://cyberleninka.ru/article>
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Маданият Вазирлиги ҳузуридаги Маданий мерос Департаменти фаолиятини ташкил этиш ҳамда моддий маданий мерос

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Маданият Вазирлиги ҳузуридаги «Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий ишлаб — чиқариш Бош бошқармаси» маълумотноммаси 2016 йил; [http:// dkm.gov.uz/en- US madaniy – meros xalqimizning- umummilliy- boyligi](http://dkm.gov.uz/en-US/madaniy-meros-xalqimizning-umummilliy-boyligi)

объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишга оид айрим норматив – ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида»ги 265- сонли Қарори 2019 йил 20 март.

4. “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги 269-II-сон Қонун 30.08.2001.

<https://www.lex.uz/docs/25461>

5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 1992 8 декабрь. 49- модда.
[https:// lex.uz/docs/ 20596](https://lex.uz/docs/20596)

6. <https://lex.uz/acts/25461>

7. “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги 269-II-сон Қонун 30.08.2001.

<https://www.lex.uz/docs/25461>

8. Теоритические основы управления социально-экономичес ким развитием территорий с объектами культурного наследия.

9. Ўзбекистон Республикаси Маданият Вазирлиги ҳузуридаги «Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий ишлаб — чиқариш Бош бошқармаси» маълумотноммаси 2016 йил; [http:/ dkm./gov./uz](http://dkm.gov.uz)
en- US madanij – meros xalqimizning- umummilliy- boyligi